



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 28-iyul

Nº 2152

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Islomov Baxriddin Nematovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Shahrisabz tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Quvvatov Shavkat Choriyevich – yozma arizasiga binoan va Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2, 10-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Satvaldiyev Ilxomjon Atajanovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yozyovon tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Xashimov Sherzod Kasimovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona harbiy sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Kurbanov Baxodir Xusanovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov